



Abseit RUSTEMOV,
Chirchiq davlat pedagogika iniversiteti o'qituvchisi
E-mail: : abekt1995@gmail.com

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsent v.b., PhD Q.Mambetaliyev taqrizi asosida

RAQAMLI TA'LIM JARAYONIDA MAKTABGACHA TA'LIM TALABALARINING MEDIAKOMPETENTLIGINI BOLALAR ADABIYOTI ORQALI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli ta'lim jarayonida maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari mediakompetentligini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqot bolalar adabiyoti namunalarning media shakllari (multfilm, audiokitob, interaktiv ilovalar, AR/VR etkaklar) orqali talabalarda media tahlil, media ijodkorlik va media xavfsizlik kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlarini o'rganishga qaratildi. IMRAD modeliga asoslangan holda, mediakompetentlikning tarkibiy qismlari, uni shakllantirish texnologiyalari hamda raqamli ta'limning metodik shartlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari mediata'lim vositalari yordamida bolalar adabiyotini o'qitish jarayonida talabalarning kognitiv, tanqidiy va ijodiy faoliyatini sezilarli darajada faollashtirishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Mediakompetentlik, raqamli ta'lim, mediata'lim, bolalar adabiyoti, media tahlil, media xavfsizlik, animatsiya, audiokitob, interaktiv texnologiyalar, maktabgacha ta'lim talabalari.

РАЗВИТИЕ МЕДИАКОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ЧЕРЕЗ ДЕТСКУЮ ЛИТЕРАТУРУ В ПРОЦЕССЕ ЦИФРОВОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

В данной статье проанализированы теоретические и практические аспекты развития медиакompetentности студентов направления дошкольного образования в условиях цифрового образовательного процесса. Исследование направлено на изучение возможностей формирования у студентов навыков медианализа, медиа-творчества и медиабезопасности через медиаформы произведений детской литературы (мультфильмы, аудиокниги, интерактивные приложения, AR/VR-сказки). На основе модели IMRAD раскрыты структурные компоненты медиакompetentности, технологии её формирования, а также методические условия цифрового обучения. Результаты исследования показывают, что использование медиадидактических средств при преподавании детской литературы существенно активизирует когнитивную, критическую и творческую деятельность студентов.

Ключевые слова: Медиакompetentность, цифровое обучение, медиобразование, детская литература, медианализ, медиабезопасность, анимация, аудиокнига, интерактивные технологии, студенты дошкольного образования.

DEVELOPING MEDIA COMPETENCE OF PRESCHOOL EDUCATION STUDENTS THROUGH CHILDREN'S LITERATURE IN THE DIGITAL LEARNING PROCESS

Annotation

This article analyzes the theoretical and practical aspects of developing media competence among preschool education students within the context of digital learning. The study focuses on exploring the potential of media forms of children's literature (animated films, audiobooks, interactive applications, AR/VR stories) for fostering students' media analysis, media creativity, and media safety skills. Based on the IMRAD model, the structural components of media competence, technologies for its development, and methodological conditions of digital education are described. The findings demonstrate that the use of media-education tools in teaching children's literature significantly enhances students' cognitive, critical, and creative activity.

Key words: Media competence, digital learning, media education, children's literature, media analysis, media safety, animation, audiobook, interactive technologies, preschool education students.

Kirish. XXI asrda global axborot makonining doimiy kengayishi, raqamli platformalar va mobil texnologiyalarning jadal rivojlanishi, shuningdek, yangi media vositalarining kundalik hayotga tobora chuqurroq singib borishi natijasida zamonaviy ta'lim tizimi oldida o'z mazmuni va vazifalari jihatidan mutlaqo yangi talablar yuzaga keldi. Avvalo, raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim jarayonining barcha bo'g'inlariga, jumladan, maktabgacha ta'lim yo'nalishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatib, pedagogik faoliyatning mazmunini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan, bugungi axborotlashgan jamiyatda shaxsning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, o'zini ijtimoiy-madaniy makonda erkin namoyon qila olishi hamda yangi bilimlarni tez va samarali o'zlashtirishi ko'p jihatdan uning media makonini anglay

olishi, media oqimlarini baholashi, filtrlashi, tahlil qilishi va ulardan maqsadga muvofiq foydalana bilish qobiliyatiga bog'liq bo'lib qoldi. Boshqacha aytganda, media vositalaridan ongli foydalanish shaxsning kognitiv va kommunikativ malakalari qatoridan o'rin oldi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mediakompetentlikning shakllanishi nafaqat zamonaviy kasbiy ehtiyoj, balki ta'lim tizimining strategik maqsadlari bilan bog'liq bo'lgan muhim pedagogik zaruriyatdir. Sababi, aynan ushbu yo'nalish vakillari kelajakda yosh avlodning dastlabki media tajribalarini, axborot bilan ilk munosabatlarini va media vositalarni bilvosita idrok etish mexanizmlarini shakllantiruvchi mutaxassislar sifatida faoliyat yuritadilar.

Demak, ularning mediakompetent bo'lishi pedagogik jarayon sifatini belgilovchi fundamental omillardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, bugungi shiddatli axborot oqimi sharoitida bola ongini himoyalash, uning yoshiga mos bo'lmagan, manipulyativ yoki salbiy xarakterga ega media materiallardan asrash masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari axborot manbalarini tanlash, ularning ishonchliligini baholash, media matnning mazmuniy va semantik qatlamlarini tahlil qilish, vizual va audio materiallarning psixologik ta'sirini aniqlash, hamda bolalar uchun zarur bo'lgan tarbiyaviy va ma'rifiy media vositalarini tanlay olish kompetensiyalariga ega bo'lishlari lozim. Bunday ko'nikmalar esa o'z-o'zidan shakllanmaydi; ular maxsus o'quv dasturlari, tizimli pedagogik yondashuv, nazariy-metodik ta'minot va amaliy mashg'ulotlar orqali rivojlantiriladi.

Shu bilan birga, raqamli kommunikatsiya shakllarining kengayishi talabalarining shaxsiy media faoliyatiga ham yangi mazmun bag'ishlamoqda. Ulardan nafaqat media iste'molchisi, balki media yaratuvchisi sifatida ham faol qatnashish talab etiladi. Bu esa mediakompetentlik tushunchasiga media matn yaratish, vizual dizayn asoslari, axborotni qayta ishlash texnologiyalari, media madaniyat va media etikasi kabi komponentlarning kirishi zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, global kommunikatsiya maydoni doimiy ravishda o'zgarib borar ekan, yosh avlodning ongiga turli mafkuraviy oqimlar, ijtimoiy trendlar, reklama strategiyalari va lingvokulturologik xabarlarining ta'siri kuchaymoqda. Shu sababli, maktabgacha ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan talabalar bunday jarayonlarni nafaqat kuzata olishi, balki ular ortida yotgan maqsadlarni anglab, bola uchun xavfsiz bo'lgan media muhitini yaratishga qodir bo'lishlari zarur. Bu vazifa esa mediakompetentlikning strategik ahamiyatini yanada oshiradi.

Bundan tashqari, ta'lim jarayoniga media vositalarining kirib kelishi pedagogning o'qitish uslublariga ham yangicha yondashuvni talab etmoqda. Interfaol media resurslar, multimodal axborot tashuvchilar, o'quv videolari, raqamli o'yinlar, virtual muhitlar va vizual kommunikatsiya elementlari maktabgacha yoshdagi bolalarning idrokiga mos ravishda to'g'ri tanlanishi, didaktik maqsadga xizmat qilishi va bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini inobatga olishi kerak. Bu esa talabalarda media vositalaridan pedagogik masalalarni hal etishda ongli, nazariy asoslangan va metodik jihatdan to'g'ri foydalanish kompetensiyasini shakllantirishni taqozo etadi.

Shu munosabat bilan aytish mumkinki, mediakompetentlik maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligida integrativ kompetensiya sifatida namoyon bo'ladi. U axborot bilan ishlash jarayonining kognitiv, texnologik, axloqiy, psixologik va kommunikativ jihatlarini birlashtirgan holda talabaning professional shakllanishida kompleks omil sifatida xizmat qiladi. Zero, bugungi media muhitning murakkabligi, uning ko'p qatlamli semantik tuzilmasi, shuningdek, raqamli sharoitning tezkor o'zgarishi pedagogdan ham nazariy bilimlar, ham amaliy ko'nikmalarni talab qiladi.

Rus ilmiy maktabida mediakompetentlik muammosining tadqiqi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab izchil rivojlana boshladi. Bu davrda axborot oqimlarining keskin ortishi, ommaviy kommunikatsiya vositalarining tez sur'atlarda taraqqiy etishi va jamiyat hayotida media makonning ta'sir kuchining oshishi natijasida shaxsning media bilan o'zaro munosabatini psixologik va pedagogik jihatdan o'rganish zarurati tug'ildi. Mazkur jarayon mediapedagogika deb nomlangan yangi ilmiy yo'nalishning shakllanishiga olib keldi. Ushbu yo'nalish nafaqat texnik vositalardan foydalanish masalasini, balki media muhitining shaxs ongiga, xulq-atvoriga

va kognitiv rivojiga ko'rsatadigan ta'sirini har tomonlama tadqiq etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Rus ilmiy maktabi doirasida mediakompetentlikning nazariy asoslarini shakllantirgan yetakchi olimlardan biri Yu. S. Manuilov bo'lib, u o'zining "o'rta muhit" nazariyasi orqali media muhitning shaxs rivojiga ta'sirini chuqur yoritib berdi. Manuilov media makonini tashqi axborot oqimi yoki texnologik vositalarning yig'indisi sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiylashuvi, bilish faoliyati va faol tajriba orttirish jarayoniga bevosita singib ketgan murakkab sotsial-psixologik tizim sifatida talqin qiladi. Uning nazariyasida media muhiti shaxsning dunyoni idrok etish usullarini, voqelikni talqin qilish mexanizmlarini, fikrlash shakllarini va kommunikativ odatlarini shakllantiruvchi kuchli omil sifatida namoyon bo'ladi. Manuilovning ta'kidlashicha, media bilan to'qnashuv natijasi sifatida insonda kognitiv jarayonlar faollashadi, axborotni izlash, uni saralash va tahlil qilishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi, shuningdek, media tasvirining polisemantik xususiyati sababli ongda yangi mantiqiy bog'lanishlar va assotsiativ jarayonlar shakllanadi.

Uning fikricha, media muhiti shaxsning ijtimoiy tajribasini shakllantiradigan, uning qadriyatlar tizimi va madaniy orientirlarini belgilaydigan hamda o'zini o'zi anglash jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan muhim pedagogik omildir. Shu bois Manuilov ta'lim jarayonini loyihalashda media omillarini inkor etib bo'lmas shart sifatida ko'rib, pedagogik faoliyatni media muhit bilan integratsiyalashgan holda tashkil etishni zarur deb biladi. U media vositalaridan foydalanishni oddiy texnik ko'nikmalarni o'rgatish bilan cheklamasdan, talabaning media bilan ongli va tanqidiy munosabatini shakllantirish, media xabarlarining mazmunini anglash, ulardagi yashirin semantik qatlamlarni ochish va ularning shaxsiy rivojga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qila olish kabi yuqori darajadagi kognitiv faoliyatlarni rivojlantirish bilan bog'laydi.

Manuilovning bunday yondashuvi keyinchalik rus mediapedagogikasining rivojlanishida asosiy nazariy poydevor sifatida xizmat qildi. Uning g'oyalari mediakompetentlikni ko'p omilli, ko'p qatlamli va murakkab pedagogik fenomen sifatida tushunishga imkon berdi. Shu tariqa, ushbu nazariya mediakompetentlikni shakllantirishda faqat texnik va informatsion jihatlarini emas, balki psixologik, madaniy va kognitiv omillarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatib berdi. Rus ilmiy maktabida mediakompetentlikning keyingi rivoji Manuilov tomonidan boshlangan konseptual g'oyalarning chuqurlashtirilishi, kengaytirilishi va zamonaviy media muhit talablari asosida qayta talqin etilishi bilan davom etdi.

Shu bilan birga, A. V. Yasvin ta'lim muhitining psixologik tuzilishini tadqiq etar ekan, media vositalarining shaxs idroki, fikrlashi va kognitiv jarayonlarini shakllantirishdagi o'rniga alohida e'tibor qaratadi. Yasvinning ta'lim muhiti haqidagi konsepsiyasi media makonni shunchaki tashqi axborot oqimini yetkazadigan texnik vositalar majmui sifatida emas, balki shaxsning psixik faoliyatini, uning emotsional holatini, motivatsiyasini, ijtimoiy munosabatlarini va bilish jarayonlarini qayta tashkil etuvchi murakkab psixologik tizim sifatida talqin qiladi. Uning ilmiy yondashuvida media vositalari insonning idrok mexanizmlariga bevosita ta'sir o'tkazadigan, uning diqqatini boshqaradigan, xotira jarayonlarini faollashtiradigan va ma'lumotni qayta ishlash strategiyalarini o'zgartiradigan kuchli psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi.

YUNESKO va L. Masterman ta'kidlaganidek, mediata'limning asosiy maqsadi talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va media kontentni anglay olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Bolalar adabiyoti esa ushbu jarayonning tabiiy va samarali o'quv materiali bo'lib, ertak, hikoya, she'rlarning turli media formatlari (multifilm,

audiokitob, interaktiv o'yin) talabalarda media idrokni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Nazariy tahlil
mediakompetentlik bo'yicha xalqaro manbalar (UNESCO, Masterman, Buckingham);
bolalar adabiyoti va media integratsiyasi haqidagi ilmiy adabiyotlar tahlili;

raqamli ta'lim texnologiyalari bo'yicha metodik qo'llanmalar.

2. Pedagogik kuzatuv

Talabalar bolalar adabiyotining media shakllarini tahlil qilish jarayonidagi faolligi kuzatildi.

3. Taqqoslash metodi

Kitob shaklidagi ertaklar va ularning media talqinlari (multifilm, audiokitob) solishtirilib o'rganildi.

4. Eksperimental topshiriqlar

Talabalarga quyidagi media amaliyotlar berildi:

mini animatsiya yaratish;

audiokitob yozish;

interaktiv ertak uchun ssenariy ishlab chiqish;

media tahlil jadvallari to'ldirish.

5. Diagnostik metodlar

Tadqiqotdan oldin va keyin mediakompetentlik darajasi o'lchandi.

Tadqiqot natijalari raqamli media vositalari orqali bolalar adabiyotini o'qitish talabalarining mediakompetentligini bir necha jihatdan rivojlantirganini ko'rsatdi:

1. Media tahlil ko'nikmalari oshdi

Talabalar ertaklarning matnli va multimediali versiyalarini tahlil qilganida quyidagi natijalar aniqlandi:

mazmun va g'oyadagi farqlarni ajratish qobiliyati oshdi;

obrazlarning media konstruksiyasini tahlil qila olish ko'nikmasi shakllandi;

stereotip va manipulyativ tasvirlarni aniqlash darajasi 28–35% ga ko'tarildi.

2. Media ijodkorlik rivojlandi

Talabalarining 70% dan ortig'i mustaqil ravishda:

qisqa animatsiya yaratdi;

audio ertak yozdi;

interaktiv ertak ssenariylarini ishlab chiqdi.

3. Raqamli savodxonlik oshdi

media fayllar bilan ishlash ko'nikmalari;

raqamli xavfsizlik (shaxsiy ma'lumotni himoya qilish, mualliflik huquqi tushunchalari) bo'yicha bilimlar mustahkamlandi.

4. Pedagogik amaliyot uchun tayyorgarlik kuchaydi

Talabalar media vositalardan foydalanib bolalarga ertak o'qish, jonlantirish va tushuntirish bo'yicha samarali metodlardan foydalanishni o'zlashtirdi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim sharoitida mediakompetentlikni rivojlantirishda bolalar adabiyoti media formatlarining didaktik salohiyati nihoyatda yuqori. Multimediali ertaklar talabalarining obrazli fikrlashini kengaytiradi, audiokitoblar – tinglab tushunish ko'nikmasini oshiradi, interaktiv ertaklar – ijodiy faollikni rag'batlantiradi.

Shuningdek, media tahlil jarayonida talabalarda axborotga tanqidiy yondashuv shakllanadi. Bu esa kelajak tarbiyachisining professional tayyorgarligi uchun muhim omil hisoblanadi.

Maqola natijalari shuni ko'rsatdiki:

mediata'limni bolalar adabiyoti bilan integratsiyalash yuqori samaradorlik beradi;

media mahsulot yaratish bo'yicha amaliy topshiriqlar mediakompetentlikning barcha komponentlarini rivojlantiradi;

raqamli vositalar bolalar adabiyotining tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot shuni tasdiqladiki, raqamli ta'lim sharoitida maktabgacha ta'lim talabalarida mediakompetentlikni rivojlantirish uchun bolalar adabiyoti va media texnologiyalar integratsiyasi samarali yondashuvdir. Media shakllardagi adabiy materiallar talabalarining media tahlil, media ijodkorlik va media xavfsizlik ko'nikmalarini kompleks ravishda shakllantiradi. Ushbu yondashuv kelajak tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini sezilarli ravishda oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Masterman, L. Teaching the Media. London: Routledge, 1994.
2. Buckingham, D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. Cambridge: Polity Press, 2003.
3. Федоров, А. В. Медиаобразование и медиаграмотность: анализ, теория и практика. Москва: Академия, 2010.
4. Usmanova, M. Bolalar adabiyoti va media vositalar integratsiyasi: didaktik imkoniyatlar. O'zbekiston pedagogikasi jurnali, 3(2), 45–52, 2020.
5. Axmedova, D. Raqamli ta'lim sharoitida maktabgacha ta'lim talabalarining kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari. Ta'lim va innovatsiyalar, 5(1), 80–87, 2021.
6. Jo'rayev, M. Bolalar adabiyoti va multimediali texnologiyalar: metodik asoslar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
7. Ташпулатович, К. Н., & Рустемов, А. Т. (2023). Толерантлик тушунчаси келиб чиқишининг назарий асослари. Conference, 64-66.
8. Rustemov, A. T. (2022). Xalq ogzaki ijodi haqida biror so'z. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies, 1(1), 159-160.
9. Rustemov, A. T. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda folklor. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies, 1(1), 157-158.
10. Rustemov, A. T. (2022). Methodology of Education of Children in Preschool Educational Institutions. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 12, 3-4.